

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Mart, 2020

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha to'qqizinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


2020-yil mart oyida loyihaga 5 869 800 so'm xayriya qilindi, 126 854 849 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

| Xarajatlar ro'yxati | summa so'mda |
|---------------------------------------|----------------------|
| Ma'muriy xarajatlar | - 13 520 560 |
| Bank xarajatlari | - 152 603 |
| Tarjima | - 24 930 400 |
| Tahrir | - 27 202 560 |
| Video | - 13 686 320 |
| Marketing | - 3 405 600 |
| Fandreyzing (mablag' yig'ish) | - 4 998 400 |
| Ta'mirlash va texnik xarajatlar | - 1 000 000 |
| Aloqa xarajatlari (internet, telefon) | 0 |
| Ijara haqi | - 5 600 000 |
| Jihoz va uskunalar | - 4 032 000 |
| Boshqa xarajatlar | - 2 458 855 |
| Soliqlar | - 25 867 550 |
| Jami | - 126 854 849 |

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Mart oyida xarajatlarning 52 foizi (65 819 280 so'm) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



Bugungi kungacha loyihaga 1 601 768 444 va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 1 348 330 357 so‘m sarflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Tayyor video darslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>